

SHARQNING BUYUK DOSTONI VA O‘ZBEK TARJIMA MAKTABI

*Sevinch Raximova**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti**Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy**munosabatlar yo‘nalishi talabasi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada Abulqosim Firdavsiyning jahon adabiy merosining nodir namunasi bo‘lgan “Shohnoma” dostoni, uning tarixiy va badiiy ahamiyati hamda asarning o‘zbek tiliga tarjima qilinishi masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, mashhur sharqshunos va tarjimon Shoislom Shomuhamedovning “Shohnoma”ni o‘rganish, targ‘ib qilish hamda Sharq mumtoz adabiyoti namunalarini o‘zbek kitobxoniga yetkazishdagi xizmatlari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Firdavsiy, Shohnoma, Shoislom Shomuhamedov, tarjimashunoslik, Sharq adabiyoti, epik doston, o‘zbek tarjima maktabi, mumtoz adabiyot.

GREAT EPIC OF THE EAST AND THE UZBEK TRANSLATION SCHOOL

*Sevinch Raximova**Tashkent State University of Oriental Studies**Student of the direction of world economy**and international economic relations*

Annotation: this article will analyze the epic “Shahnama”, a rare example of the world literary heritage of Abulkosim Firdavsi, its historical and artistic significance and the translation of the work into Uzbek. Also, the services of the famous Orientalist and translator Shoislom Shomuhamedov in the study, promotion of The “Chronicle” and the delivery of samples of Oriental classical literature to the Uzbek reader are highlighted.

Keywords: Firdavsiy, Shahnama, Shoislom Shomuhamedov, translation, Oriental literature, epic epic epic, Uzbek translation school, classical literature.

ВЕЛИКИЙ ЭПОС ВОСТОКА И УЗБЕКСКАЯ ПЕРЕВОДЧЕСКАЯ ШКОЛА

*Севинч Рахимова**Ташкентский государственный университет востоковедения**Студент факультета мировой экономики*

Аннотация: В данной статье анализируется эпос Абулқасима Фирдоуси “Шахнаме”, являющийся редким образцом мирового литературного наследия, его историческое и художественное значение, а также вопросы перевода произведения на узбекский язык. Также будут освещены заслуги известного востоковеда и переводчика Шойслома Шамухамедова в изучении, продвижении “шахномы” и доведении до узбекского читателя образцов классической восточной литературы.

Ключевые слова: Фирдоуси, Шахнаме, Шоислам Шамухамедов, переводоведение, Восточная литература, эпический эпос, узбекская переводческая школа, классическая литература.

Kirish: Sharq mumtoz adabiyoti tarixida Abulqosim Firdavsiyning “Shohnoma” dostoni alohida o‘rin tutadi. Mazkur asar nafaqat fors-tojik adabiyotining, balki butun insoniyat madaniy merosining eng yirik epik yodgorliklaridan biri hisoblanadi. Qariyb oltmish ming baytdan iborat bo‘lgan ushbu ulkan dostonda Eron va Markaziy Osiyo xalqlarining qadimgi tarixi, afsonalari, qahramonlik an‘analari hamda ma‘naviy qadriyatlari o‘z aksini topgan. Asarning dunyo xalqlari tillariga tarjima qilinishi uning xalqaro ahamiyatini yanada oshirgan bo‘lsa-da, bunday ulkan badiiy merosni boshqa tilga to‘laqonli ko‘chirish tarjimondan yuksak mahorat talab qiladi.

O‘zbek sharqshunosligida “Shohnoma”ni o‘rganish va targ‘ib etishda Shoislom Shomuhamedovning ilmiy faoliyati alohida ahamiyatga ega. U Sharq mumtoz adabiyoti namunalarini o‘zbek kitobxoniga yetkazish orqali milliy tarjima maktabining rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan olimlardan biridir. Shoislom Shomuhamedovning ilmiy va tarjimonlik faoliyati xalqaro miqyosda ham e‘tirof etilgan. U 1974-yilda Eronning nufuzli Xalqaro Firdavsiy mukofoti bilan taqdirlangan. Mazkur mukofot unga fors-tojik adabiyotini tadqiq etish, Sharq mumtoz adabiyotini targ‘ib qilish hamda Firdavsiy merosini o‘zbek kitobxoniga yetkazishdagi xizmatlari uchun berilgan. Shoislom Shomuhamedov ushbu mukofotning ilk xorijiy laureatlaridan biri sifatida o‘zbek sharqshunoslik maktabining xalqaro nufuzini namoyish etgan.

Asosiy qism: “Shohnoma” XI asr boshlarida yaratilgan bo‘lib, Firdavsiy ushbu asar ustida qariyb o‘ttiz yil davomida ijod qilgan. Doston qadimgi Eron podshohlari, afsonaviy qahramonlar, tarixiy voqealar va janglarni she‘riy shaklda tasvirlaydi. Asarning o‘ziga xos jihati shundaki, unda xalq og‘zaki ijodi, mifologik qarashlar va tarixiy xotira uyg‘unlashgan. Shu sababli “Shohnoma” adabiy asar bo‘lish bilan birga muhim tarixiy-madaniy manba sifatida ham qadrlanadi.

Asarning boshqa tillarga tarjima qilinishi Sharq va G‘arb ilmiy muhitida katta qiziqish uyg‘otgan. Arab, turk, hind va Yevropa tillariga qilingan tarjimalar orasida

Bundoriyning arabcha tarjimasini alohida o‘rin tutadi. Mazkur tarjima orqali fors epik tafakkuri arab dunyosiga keng yoyilgan. Tarjima jarayonidagi eng murakkab masalalardan biri asarning she‘riy uslubi va badiiy ruhini saqlab qolishdir. Firdavsiy tili obrazlarga boy, falsafiy mazmunga ega va qadimgi fors madaniyati bilan chambarchas bog‘langan. Shu sababli oddiy so‘zma-so‘z tarjima asarning badiiy qimmatini to‘liq ifodalay olmaydi. Tarjimon matn mazmuni bilan bir qatorda muallifning estetik qarashlari va badiiy mahoratini ham qayta yaratishi lozim. Shoislom Shomuhamedov Sharq mumtoz adabiyotini tarjima qilishda aynan shu tamoyillarga amal qilgan. U tarjimini faqat matnni bir tildan ikkinchi tilga o‘girish emas, balki muallif tafakkuri va ruhiyatini qayta tiklash jarayoni sifatida baholagan. Olim fors tilini mukammal bilganligi sababli Firdavsiy poetikasining nozik jihatlarini chuqur anglagan va ularni ilmiy asosda tahlil qilgan.

O‘zbek adabiy muhitida “Shohnoma”ga bo‘lgan qiziqish uzoq tarixga ega. Alisher Navoiy ham Firdavsiy ijodini yuksak baholagan. Keyingi asrlarda esa doston syujetlari xalq og‘zaki ijodi va tarixiy asarlarga sezilarli ta‘sir ko‘rsatgan. XX asrga kelib “Shohnoma”ni ilmiy o‘rganish va tarjima qilish ishlari yangi bosqichga ko‘tarildi. Bu jarayonda Shoislom Shomuhamedov kabi sharqshunos olimlarning xizmatlari alohida e‘tiborga loyiqdir. Dostondagi Rustam, Suhrob va Siyovush kabi qahramonlar Sharq xalqlari ma‘naviyatida jasorat, vatanparvarlik va sadoqat timsoli sifatida e‘tirof etiladi. Ushbu obrazlarning murakkab xarakteri va ichki kechinmalari asarning badiiy qudratini yanada oshiradi. Shu bilan birga, doston tarkibida qadimgi Eron davlat boshqaruvi, harbiy unvonlar, diniy tushunchalar va mifologik obrazlar keng o‘rin olgan. Ularni tarjima qilishda ilmiy aniqlik va badiiy mahorat uyg‘unligi talab etiladi. Shoislom Shomuhamedovning ilmiy va tarjimonlik faoliyatida aynan shu uyg‘unlik yaqqol namoyon bo‘ladi. Uning tarjima haqidagi qarashlari bugungi tarjimashunoslik rivojida ham muhim nazariy asoslardan biri sifatida e‘tirof etiladi.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, Abulqosim Firdavsiyning “Shohnoma” dostoni jahon epik adabiyotining eng buyuk namunalaridan biri bo‘lib, unda tarixiy xotira, milliy qadriyatlar va umuminsoniy g‘oyalar mujassamlashgan. Asarni boshqa tillarga tarjima qilish katta mas‘uliyat va yuksak mahorat talab etadi. Olimning ilmiy faoliyati “Shohnoma”ni o‘rganish va targ‘ib qilish bilan cheklanib qolmagan. U Sharq mumtoz adabiyotining ko‘plab namunalarini o‘zbek kitobxoniga yetkazish orqali milliy tarjima maktabining rivojiga katta hissa qo‘shgan. Uning tarjima maktabi bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini saqlab qolgan bo‘lib, Sharq adabiy merosini o‘rganish va targ‘ib qilishda muhim nazariy hamda amaliy asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abulqosim Firdavsiy. *Shohnoma*. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1975.

2. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti nashrlari va ilmiy maqolalari.
3. Yevgeniy Bertels. *Istoriya persidsko-tadjikskoy literatury*. – Moskva: Nauka, 1960.
4. [Xalqaro Firdavsiy mukofotiga sazovor bo‘lgan atoqli sharqshunos olimni bilasizmi?](#) [Elektron resurs].
5. Sharq mumtoz adabiyoti tarixi bo‘yicha ilmiy maqolalar va tadqiqotlar.

